



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

ADDIKSIYA SHAROITIDA INSON ERKINLIGI VA MAS'ULIYATINING CHEKLANISHI

Toshpo'latov Dostonjon Nodir o'g'li
Samarqand davlat universiteti, assistent

Annotatsiya

Mazkur maqolada addiksiya fenomeni inson erkinligi va mas'uliyati muammosi bilan uzviy bog'liq holda falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Addiksiya shaxsning ichki ehtiyojlari bilan tashqi ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keluvchi kompensator mexanizm sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy bosim, stress, adolatsizlik va ma'naviy bo'shliq shaxsning ongli tanlov qobiliyatini zaiflashtirib, uni muvaqqat yengillik beruvchi vositalarga qaram qilib qo'yadi. Natijada addiksiya shaxs erkinligini bosqichma-bosqich cheklab, uning subyektlik maqomini yemira boshlaydi. Maqolada Farobiy ta'limoti asosida erkinlik, iroda va mas'uliyat masalalari yoritilib, addiktiv xulq ushbu qobiliyatlarning izdan chiqish shakli sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Addiksiya, erkinlik, mas'uliyat, kompensator mexanizm, ijtimoiy anomiya, destruksiya, subyektlik, addiktologiya, falsafiy tahlil, ongli tanlov.

ОГРАНИЧЕНИЕ СВОБОДЫ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЧЕЛОВЕКА В СОСТОЯНИИ АДДИКЦИИ

Тошпулатов Достонжон Нодир угли
Самаркандский государственный университет, ассистент

Аннотация

В данной статье феномен аддикции философски анализируется в тесной взаимосвязи с проблемой человеческой свободы и ответственности. Аддикция интерпретируется как компенсаторный механизм, возникающий в результате противоречия между внутренними потребностями личности и внешними социальными условиями. Социальное давление, стресс, несправедливость и духовная пустота ослабляют способность человека к осознанному выбору и делают его зависимым от средств, приносящих временное облегчение. В результате аддикция постепенно ограничивает свободу личности и начинает разрушать её субъектный статус. В статье на основе учения Фараби рассматриваются вопросы свободы, воли и ответственности, а аддиктивное поведение интерпретируется как проявление нарушения этих человеческих способностей.

Ключевые слова: Аддикция, свобода, ответственность, компенсаторный механизм, социальная anomия, деструкция, субъектность, аддиктология, философский анализ, осознанный выбор.

THE LIMITATION OF HUMAN FREEDOM AND RESPONSIBILITY IN THE CONTEXT OF ADDICTION

Toshpo'latov Dostonjon Nodir ugli
Samarkand State University, Assistant

Abstract

This article provides a philosophical analysis of the phenomenon of addiction in close connection with the problem of human freedom and responsibility. Addiction is interpreted as a compensatory mechanism that arises as a result of the contradiction between an individual's internal needs and external social conditions. Social pressure, stress, injustice, and spiritual emptiness weaken a person's ability to make conscious choices and make them dependent on means that provide temporary relief. As a result, addiction gradually limits personal freedom and begins to erode the individual's status as a subject. Based on the teachings of Farabi, the article

examines the issues of freedom, will, and responsibility, interpreting addictive behavior as a manifestation of the disruption of these human capacities.

Keywords: Addiction, freedom, responsibility, compensatory mechanism, social anomie, destruction, subjectivity, addictology, philosophical analysis, conscious choice.

Addiksiyani tushunishda shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi ziddiyat alohida ahamiyat kasb etadi. Inson ijtimoiy hayotda doimo muvozanatga intiladi. Ammo ijtimoiy bosim, stress, adolatsizlik, ma'naviy bo'shliq yoki muvaffaqiyatsizliklar bu muvozanatni izdan chiqaradi. Natijada shaxs real muammolarni konstruktiv hal qilish o'rniga, muvaqqat jismoniy yengillik beruvchi vositalarga murojaat qiladi. Shu nuqtayi nazardan addiksiya ko'pincha kompensator mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. "Kompensatorlik odamlar ongining qayta shakllanishini, turmushning obyektiv shart-sharoitlarini o'zgartirishdagi cheklanish, qaram bo'lish va o'jizlikni to'ldiradi. Ruhiiy erkinlik orqali real jabr-zulm bartaraf etiladi; Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, katarsis va ma'naviy ozuqa olish kabi kompensatsiyaning aspektlari muhim ahamiyatga egadir"[1]. Addiksiya jarayonida shaxs muayyan obyekt yoki faoliyatni kompensator sifatida qabul qiladi. Dastlab bu vosita stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash yoki vaqtinchalik qoniqish hissini berishi mumkin. Biroq vaqt o'tishi bilan mazkur vosita shaxs hayotining markaziy elementi sifatida mustahkamlanadi. Shu tariqa addiksiya rivojlanib, shaxsning ongli tanlovi va irodaviy boshqaruvi asta-sekin zaiflashadi.

Addiksiya inson erkinligi muammosi bilan bevosita bog'liqdir. Klassik falsafada erkinlik insonning ongli tanlov qila olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. "Farobiyning mulohazalaridan anglash mumkinki, erkinlik insonlarning aql idroki, tafakkuri va qaror qabul qilish mas'uliyati bilan bog'liq xususiyat ekan. Demak, tafakkur va qaror qiluvchilar erkin shaxslar bo'lib, ular lazzat va azob uqubatlardan o'z aqlari yordamida yomon ishlardan qochishda foydalanadilar. Shu bilan birga, u iroda va qalbning aqliy hamda boshqa qismlaridan vujudga keluvchi istaklar haqida gapirar ekan erkin tanlov insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi hislat ekanligini va u tufayli o'zboshimchalik amalga oshirili mumkinligini aytib o'tadi. Shu orqali insonlar erkin tanlovlari orqali bajargan barcha ishlariga va qilmishlariga mas'uliyatni hamda o'zlarining hayotlarida sodir bo'ladigan hodisalarga javobgarlikni bo'yinlariga oladilar. Aynan shu xislat, yuqorida ta'kidlanganidek, erkinlikni ta'minlab berish bilan bir qatorda insonlarni boshqa jonzotlardan farqlab, ajratib ko'rsatuvchi omil ham sanaladi"[2]. Addiksiya esa ushbu qobiliyatni bosqichma-bosqich cheklaydi. Shaxs tashqi tomondan erkin harakat qilayotgandek tuyulsa-da, ichki jihatdan u qaramlik obyektining ostida qoladi. Natijada shaxs subyektlilik maqomini yo'qota boshlaydi va o'z xatti-harakatlarining haqiqiy egasi bo'la olmay qoladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi addiksiya, destruksiya, addiktologiya tushunchalariga oid umumiy fundamental tadqiqotlar negizida shakllandi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida fenomenologiya, tahliliy hamda tizimli yondashuv kabi falsafiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Globalashuvning ijtimoiy destruksiyalari mazmuni va mantig'i ilmiy izlanishlarda aks eta boshladi. Aslida "destruksiya" tushunchasi lotincha "destructio" (buzmoq, vayron etmoq) so'zidan olingan[3]. Ushbu tushuncha odatda "konstruksiya" (lotincha "constructio" – tuzmoq, yaratmoq, bunyod qilmoq) so'zining antipodi, antonimi sifatida ishlatiladi. Destruksiya turli fanlarda faol qo'llaniladigan tushunchalardan biridir. Masalan, psixologiyada mazkur tushuncha o'z-o'ziga yoki jamiyatga nisbatan amalga oshirilgan vayronkorlik hatti-harakatlarini ifodalaydi. Bunda tashqi va ichki destruktiv xulq-atvor tasniflanadi. "Tashqi xulq-atvor sifatida sotsiumni vayron qilish variatsiyalari (vandalizm, yodgorliklarni vayron qilish, qadriyatlarga hurmatsizlik, san'at asarlarini yo'q qilish, tabiiy muhitga ziyon yetkazish va sh.k.) tilga olinadi. Ichki destruktiv xulq-atvor shakllari suitsid, alkogolizm, giyohvandlik, toksikomaniya va shu kabilardan tarkib

topadi”[4]. Bunday destruktiv addiksiyalar o‘z navbatida ijtimoiy anomiyani kuchaytirib yuboradi.

Bugungi kunda kuzatlayotgan madaniy inqiroz, ijtimoiy anomiya, turmush darajasidagi tafovutlar bu anomal muammolardir. “Anomal (yun.noto‘g‘ri) - umum qabul qilingan me‘yorlar yoki qonuniyatlardan chetga chiqish, rivojlanishning noto‘g‘riligi”[5]. XIX-asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy normalardan og‘uvchi addiksiya bilan bog‘liq tushunchalardan biri E.Dyurkgeymning “anomiya”[6] g‘oyasi edi. Dyurkgeym fanga o‘zi kiritgan “anomiya” atamasi orqali individual va ijtimoiy ongning axloqiy-ruhiy holati, jamiyat inqirozi tufayli qadriyatlar tizimining buzilishi bilan tavsifladi. Ijtimoiy anomiya normalar “bo‘shlig‘i”da paydo bo‘ladi, ya‘ni normalar “barham” topali. Ijtimoiy normalarning fuqarolarga ta‘siri deyarli samara bermaydi, ularning axloqni ijtimoiy tartibga solish vositasi sifatidagi ta‘sir darajasi pasayib ketadi. Me‘yoriy ko‘rsatkichlar bo‘shashib ketadi, har xil talqin etiladi, ziddiyatlashadi. Vujudga keladigan ijtimoiy hodisalar - ehtiyojlar, manfaatlar bilan ularni qanoatlanirish imkoniyatlari o‘rtasida nomutanosiblik paydo bo‘ladi.

Demak yuqorida aytilgan destruktik va addiksiya bilan bog‘liq muammolarni kompleks o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj addiktologiya fanining shakllanishiga olib keldi. Addiktologiya addiksiya fenomenining mohiyati, uning paydo bo‘lish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, individual va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qiluvchi fan sohasi sifatida vujudga kelgan. Ushbu fan shaxs, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. “Addiktologiya zamonaviy psixiatriya va klinik psixologiyaning yangi bo‘limi hisoblanadi. U insonning kimyoviy va nokimyoviy qaramliklarini o‘rganadigan fan bo‘lib, ularning shakllanishi, rivojlanishi, diagnostikasi, profilaktikasi, davolash va rehabilitatsiya mexanizmlarini tahlil qiladi. Hozirgi vaqtda addiktiv (qaram) xulq-atvoriga ega bo‘lgan o‘smirlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda”[7]. Tarixiy jihatdan addiktologiyaning shakllanishi XIX asr oxiri - XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Dastlab addiktiv holatlar tibbiy patologiya sifatida ko‘rib chiqilgan. Asosan alkogolizm hamda narkomaniya bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Psixiatriya va narkologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar addiksiya organizmning fiziologik o‘zgarishlari bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Biroq vaqt o‘tishi bilan addiksiyaning faqat biologik sabablar bilan izohlanishi yetarli emasligi ayon bo‘ldi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab addiktiv xulqning psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilishga e‘tibor kuchaydi. Shaxsning motivatsion tuzilmasi, stressga bardoshlilik, ijtimoiy moslashuv darajasi, oilaviy va madaniy muhitning ta‘siri addiksiya rivojlanishida muhim rol o‘ynashi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Aynan shu davrda addiktologiya fanlararo yo‘nalish sifatida shakllanib, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va falsafa bilan yaqin aloqada rivojlana boshladi. Addiktologiyaning fan sifatida mustaqil shakllanishiga zamonaviy jamiyatda addiktiv xulq shakllarining keskin ko‘payishi ham turtki bo‘ldi. Texnologik taraqqiyot, raqamli munosabatlar rivojlanishi natijasida yangi turdagi addiksiyalar yuzaga keldi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, virtual o‘yinlar, onlayn qimor kabi qaramliklar addiktologiya doirasida yangi tadqiqot obyektiga aylandi. Bu esa fanning predmetini yanada kengaytirib, uni jamiyat taraqqiyotining muhim indikatorlaridan biriga aylantirdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Avvalo, fan addiktiv xulqning genezisi, ya‘ni kelib chiqish omillarini tahlil qiladi. Bu jarayonda biologik moyillik, psixologik xususiyatlar va ijtimoiy sharoitlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi. Addiksiya hech qachon yagona sabab natijasi bo‘lmaydi. Balki ko‘p omilli murakkab jarayon sifatida shakllanadi. Shuningdek, addiktologiya doirasida qaramlik turlarining tasnifi muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

“Hozirgi kunda addiktiv xulq-atvorning qariyb 30 dan ortiq turlari mavjudligi qayd etiladi. Quyida addiktiv xulq-atvorning eng keng tarqalgan turlari keltiriladi. Avvalo ular uch asosiy guruhga bo‘linadi: kimyoviy, biokimyoviy va xulqiy:

I. Eng xavfli hisoblanganlari kimyoviy adiksiyalar bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1. nikotinga qaramlik (nikotinomaniya);
2. toksikomaniya;
3. giyohvandlik;
4. dori vositalariga qaramlik;
5. alkogolizm.

II. Xulqiy adiksiyalar esa quyidagi shakllarda uchraydi:

1. axborotga bog‘liq adiksiyalar (kompyuterga qaramlik, telefonga qaramlik, internetga qaramlik, chatga qaramlik, radiomaniya, televizorga qaramlik, zapping (televizor kanallarini doimiy almashtirish), SMSga qaramlik);

2. qaram mashg‘ulotlar (ishqibozlik - mehnatparastlik, kolleksiyachilik, buyumlarga haddan tashqari bog‘lanish va boshqalar);

3. jinsiy adiksiyalar (zoofiliya, fetishizm, pigmalionizm, transvestizm, ekshibitsionizm, nekrofiliya, sadomazoxizm, vuyyerizm va boshqalar);

4. tana tuzilishini doimiy o‘zgarishiga qaramlik (plastik operatsiyalarga berilish, pirsing, tatuirovka, chandiqlash va boshqalar);

5. jismoniy qaramliklar (odamlardan yakkalanib yurish, surunkali kechikish, doimiy shoshilish, kimlargadir haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilish, uyda mutlaq tozalikka berilish, doimiy uxlash istagi);

6. zararli odatlarga qaramlik (tirnoq tishlash, teri bo‘laklarini yulish, trixotillomaniya - sochni doimiy ravishda yulish istagi, retinoliksomaniya - burunni kovlash va boshqalar);

7. pulga qaramlik (jamg‘arishga haddan tashqari berilish, oniomaniya - nazoratsiz xarid qilish istagi, pulni qayta-qayta sanash ehtiyoji va boshqalar);

8. jinoyatga oid adiksiyalar (yolg‘on guvohlik berish, kleptomaniya - patologik o‘g‘rilik va boshqalar);

9. sog‘liqqa nisbatan o‘ziga xos munosabat bilan bog‘liq qaramliklar (sog‘lig‘idan haddan tashqari xavotirlanish, chadomaniya - doimiy ravishda homilador bo‘lish va farzand tug‘ishga intilish);

10. gembling - qimor o‘yinlariga qaramlik (kazino, ludomaniya – kompyuter o‘yinlariga qaramlik, garovlar, bahslar, elektron o‘yinchoqlar va qurilmalarga - masalan, tamagotchiga qaramlik va boshqalar);

11. sevgi munosabatlariga qaramlik;

12. ruhiy-amaliyotlarga qaramlik (meditatsiya, psixotexnikalar, ibodat, trans holatlari, diniy marosimlar, sektachilik);

13. xavf va ekstremal ko‘ngilochar faoliyatga qaramlik.

III. Keyingi guruh - biokimyoviy adiksiyalar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. anoreksiya;
2. bulimiya;
3. ta‘mga (ovqatga) qaramlik”[8].

XULOSA

Ijtimoiy-falsafiy yondashuv addiksiyani jamiyatda yuzaga kelayotgan nomutanosibliklar, qadriyatlar inqirozi va ijtimoiy adolatsizliklarning subyektiv aks sadosi sifatida ko‘rishga imkon beradi. Shaxsning addiktiv xulqqa moyilligi ko‘pincha uning ijtimoiy muhitga moslashish imkoniyatlari cheklanganda yoki jamiyat tomonidan taklif etilayotgan hayot strategiyalari bilan ichki ehtiyojlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelganda kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, addiksiya inson hayotida oddiy odat yoki individual zaiflik emas, balki erkinlik va mas‘uliyat bilan bog‘liq chuqur ijtimoiy-falsafiy muammodir. Shaxs dastlab addiktiv obyektga ongli ravishda murojaat qilgandek tuyulsa-da, vaqt o‘tishi bilan bu tanlov uning irodaviy boshqaruvini cheklaydi va ichki qaramlikni kuchaytiradi. Natijada inson tashqi tomondan

erkin bo‘lib ko‘rinsa-da, mohiyatan addiksiya obyektiga bo‘ysunib qoladi. Bu holat shaxsning subyektlik maqomini susaytirib, uni o‘z xatti-harakatlarining haqiqiy egasi bo‘lish imkonidan mahrum etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Очилдиев А. ва бошқ. Диншунослик асослари. — Тошкент: «Тошкент ислом университети», 2013. 16-бет.
2. Raximdjanova D.S. Klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomeni komparativistikasi. Fal.fan.bo‘y.fal.dok.diss. avtoreferati. -Toshkent: ToshDTU. 2025. 22-bet.
3. Қаранг: Деструкция // Словарь иностранных слов. Составитель Комлев Н.Г. - Москва: Эксмо-пресс, 2000. –С.41.
4. Городяненко В. Социальная деструктивность: виды, механизмы и факторы актуализации // Украинский социологический журнал, 2015. №1-2. - С. 72.
5. Фуломов С.С. “Олий таълим” луғат-маълумотнома. Тошкент: “Молия”, 2003. Б- 18.
6. Дюркгейм Э. Самоубийство. Социологический этюд. М., «Мысль», 1994. С- 119.
7. Котова С. А. К73 Интернет-зависимость у детей и подростков: риски, диагностика и коррекция.- СПб.: изд-во ВВМ, 2023. - 5 с.
8. Николаева Е. Каменская В. Аддиктология. Теоретические и экспериментальные исследования формирования аддикции/ Е. Николаева, В. Каменская. – М.: Форум, 2015. – 224 с.